

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**RO‘ZIBAYEVA NIGORAXON RAXIMOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY MATNLARIDA ANTITEZANING  
SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI  
(T.S.Eliot va Cho‘lpon asarlari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Ro‘zibayeva Nigoraxon Raximovna**

Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida antitezaning semantik va pragmatik xususiyatlari (T.S.Eliot va Cho‘lpon asarlari misolida)..... 3

**Рузибаева Нигорахон Рахимовна**

Семантические и прагматические особенности антитезы в английских и узбекских художественных текстах (на примере произведений Т.С. Элиота и Чулпана)..... 25

**Ruzibaeva Nigorakhon Rakhimovna**

Semantic and Pragmatic Features of Antithesis in English and Uzbek Literary Texts..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 53

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**RO‘ZIBAYEVA NIGORAXON RAXIMOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY MATNLARIDA ANTITEZANING**  
**SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**  
**(T.S.Eliot va Cho‘lpon asarlari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/Fil993 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Teshaboyeva Ziyodaxon Qodirovna  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Siddiqova Iroda Abduzuhurovna  
filologiya fanlari doktori, professor

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «27» aprel soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21a. Tel.: (998 71) 230-12-91, (99871) 230-12-92; e-mail: www.uzswlu\_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91, (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «13» aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil «13» aprel dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi)



**I.M. Tuxtasinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, ped.f.d., professor

**X.B. Samigova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**J.A. Yakubov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligi va adabiyotshunosligida badiiy adabiyotlarni o'rganish, kognitiv va pragmatik jihatdan yondashish, asliyat va tarjimadagi lingvistik assotsatsiyalarni tadqiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda jahon adabiyotida nazmda bitilgan asarlarni o'rganishda yangi usullar paydo bo'lmoqda-ki, fanda ingliz va o'zbek adabiyotining sara asarlaridagi muallif maqsadini tog'ri anglash va o'rganishda lingvopragmatik xususiyatlarini ochib berish yangi metodlar va yondashuvlar orqali amalga oshirishni taqozo etmoqda. Natijada o'zbek va ingliz she'riy matnlaridagi semantikaning stilistik jihatdan muhim vositalardan biri bo'lgan antitezalarni muqoyasa qilib o'rganish lingvopragmatik jihatdan yondashishni talab etmoqda.

Dunyo adabiyotshunoslik va tilshunoslik borasidagi ilmiy tadqiqot markazlarida badiiy matnlarning stilistik xususiyatlari, ularda qo'llangan badiiy tasviriy vositalarning leksik-semantik, milliy-madaniy, pragmatik, lingvopoetik, kognitiv xususiyatlari borasida qiyosiy adabiyotshunoslik va chog'ishtirma tilshunoslik sohalarida ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda. O'zbek jadid adabiyoti namoyandasi, shoir, dramaturg, adib Abdulhamid Cho'lpon va ingliz modernizm she'riyatining yorqin vakili, shoir, dramaturg, muharrir Tomas Eliot asarlari tilining lingvistik xususiyatlari ham o'rganilgan bo'lib, ilmiy izlanishlarning asosiy salmog'ini struktur tilshunoslik paradigmasi asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, she'riy matnlar nasriy matnlardan o'ziga xos fonetik, struktur, leksik-semantik, stilistik hamda pragmatik jihatdan farq qiladi va she'riy matnni ushbu sathlarda aks ettirish, ayniqsa antitezalar masalasi birmuncha murakkab sanalganligi bois ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borish muhim va dolzarb. Ularni qiyosiy adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida tadqiqot olib boorish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda milliy adabiyotimiz namoyondalari A.Cho'lpon, Fitrat, A.Qodiriy asarlari jadid ma'rifatparvarlarining hayoti, ijtimoiy faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini o'rganish va targ'ib va tatbiq etish bo'yicha yurtimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2023-yil 22-dekabr kengaytirilgan kengashdagi nutqida ta'kidlaganidek, "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilmfan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur".<sup>1</sup> Ushbu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, adabiyotshunoslik sohasining obykti bo'lgan badiiy adabiyot namunalarni tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish imkonini yaratadi. Xususan she'riy asarlar uslubiyati, badiiy san'atlar, ularning badiiy-estetik qiymatini oshirishga xizmat qiladigan stilistik vositalar, xususan, ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlardagi antitezaning qo'llanishi, uning

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Ma'naviyat boshqa sohalaridan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak". 2023-yil 22-dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi.

struktur, semantik hamda pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish, antitezaning soʻz birikmasi yoki gap tarkibida qoʻllanishining morfologik, sintaktik, semantik xususiyatlari, muallifning badiiy intensiyasini yetkazishda antitezadan foydalanish xususiyatlarini qiyosiy aspektda keng monografik jihatdan tadqiq qilish, tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha “Harakatlar strategiyasi togʻrisida”gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari togʻrisida”, 2020-yil 8-oktiyabrdagi F-5598-sonli “Qatagʻon qurbonlarning merosini yanada chuqur oʻrganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar togʻrisidagi farmoyishi; 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlarida mazkur faoliyatga tegishli hamda boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Badiiy matnlar uslubi, ularda qoʻllangan stilistik usullar, xususan, antitezaning nasriy va sheʼriy matnlarda qoʻllanishi borasida Oʻzbekiston, Rossiya, Yevropa va boshqa mintaqa olimlari tomonidan adabiyotshunoslik, tilshunoslik sohalarida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, mamlakatimizda tilshunoslikning alohida sohasi hisoblangan stilistika, uning tadqiqot obyektlari, matn lingvistikasi, stilistik vositalarning badiiy matndagi oʻrni, tarjima muammolariga bagʻishlangan bir necha ishlar amalga oshirilgan<sup>2</sup>. Oʻzbek tilshunosligida antitezaning til birligi, xususan, qoʻshma gaplar doirasidagi vazifasi, uning oʻziga xos jihatlari, antitezani yuzaga keltiruvchi til va nutq birliklari A.Mamajonov<sup>3</sup>, qoʻshma gaplar umumiy stilistikasining asindeton,

<sup>2</sup> Kўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент: ТошДУ, 1975. – 213 б.; Дониёров Х, Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стил. – Тошкент: Ўздавнашр, 1962. – 173 б.; Мамадов Х. Лексико-стилистикальные особенности художественной прозы Алишера Навоий. Автореф.дисс...канд.филол.наук. – Тошкент: 1969.; ; Исҳоқов Ё. Тазод. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970. – №5. – Б.80-83.; Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы “Фарход и Ширин” Алишера Навоий. Автореф.дисс...канд.филол.наук. – Тошкент: 1973.; Мамажанов А. Қўшма гапларда антитеза. Ўзбек тили ва адабиёти. – 1990. №6. 27 б.; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. Филол.фан.док...дисс.– Самарканд: 1993. – 221 б.; Шомақсудов А, Расулов И, Қўнгуоров Р, Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Замон, 1983. – 237 б.; Мамажанов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка. Автореф.дисс. докт.филол.наук. – Ташкент: 1991. – 59 с.; Мусаев Қ. Стилистические вопросы художественного перевода с английского языка на узбекский. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд: 1967. – 25 б.; Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2011. № 3. – Б.19-24.; Бобохонова Л.Т. Инглиз тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 140 б.; Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латиқалари мисолида). Филол. фан. ф. д. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент: 2017. – 24 б.

<sup>3</sup> Мамажанов А. Қўшма гапларда антитеза. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 1990. №6. – Б. 27-35.

polisindeton, antiteza va xiazm misolidagi muammolari bo'yicha I.O'sarov<sup>4</sup>, antitezaning badiiy matnda, xususan, she'riyatda qo'llanishiga bag'ishlangan tadqiqot G.Keldiyorova<sup>5</sup> kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Rus olimlaridan Y.Plaksina<sup>6</sup>, Y.Fursova<sup>7</sup>, Liao Leye-Yuex<sup>8</sup>, S.Koryukina<sup>9</sup> O'zbekiston olimlari singari antitezani tilshunoslik, adabiyotshunoslik, kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazardan o'rgangan. Yevropa va boshqa mintaqa olimlaridan esa Anna Felrtako<sup>10</sup>, Uilyam Man, Sandra Tompson<sup>11</sup>, Sanda Harabagui<sup>12</sup>, L.Vertayeva<sup>13</sup> kabilar leksik qarama-qarshilik, antitezani yuzaga keltiruvchi antonimik birliklar, antitezani badiiy matn yaratish usuli sifatida tadqiq qilish masalalarini o'rgangan.

Biroq, antitezaning she'riy asarlarda qo'llanishi, uning kontrast, ziddiyat va qarama-qarshilik tushunchalarini namoyon etishda til va nutq birligi sifatida qo'llanishi, ingliz va o'zbek tillarida badiiy adabiyotda antitezaning morfologik jihatdan so'z turkumlari va sintaktik jihatdan gap bo'laklari vazifasida qo'llanishi, ularning leksik-semantik xususiyatlari, muallif badiiy intensiyasini yaratishda antitezadan foydalanish usullari, ingliz va o'zbek she'riy asarlarda antitezaning qo'llanishidagi izomorfik va allomorfik xususiyatlari kabi masalalarga e'tibor qaratilish nuqtayi nazardan mazkur dissertatsiya yuqorida ta'kidlab o'tilgan ilmiy izlanishlardan farq qiladi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikasion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi innovasion loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o'zbek tilidagi she'riy matnlarda qo'llangan antitezaning struktur-semantik va pragmatik xususiyatlarini Abdulhamid Cho'lpon va Tomas Eliot she'riy asarlari asosida ochib berishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

---

<sup>4</sup> Ўсаров И.К. Қўшма гаплар умумий стилистикасининг муаммолари (асиндетон, полисиндетон, антитеза ва хиазм материаллари асосида). Филол. фан. ном. дисс. – Андижон: 2004. – 59 б.

<sup>5</sup> Келдиёрова Г.С. Ўзбек бадийи нуқтида антитеза (Э.Воҳидов шеърини мисолида). Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент: 2000. – 145 б.

<sup>6</sup> Плаксина Е.Б. Антитеза в заголовках статей российской и французской прессы. Автореф.дисс...канд.филол.наук. – Екатеринбург, 2007. – 23 с.

<sup>7</sup> Фурсова Е.В. "Дискурсивные параметры стилистического приема антитезы (на материале англоязычного художественного текста)". Дисс...канд.филол.наук. – Москва: 2008. – 185 с.

<sup>8</sup> Лее-Йуех Л. Стилистика контраста в автобиографической прозе М.Горького и И.Бунина. Автореф.дисс...канд.филол.наук. – Санкт-Петербург: 1999. – 22 с.

<sup>9</sup> Корюкина Е.С. Проблема определения антитезы в терминологических словарях и справочниках // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. – № 5. – Нижегород, 2012. – С. 300-303.

<sup>10</sup> Feltracco A. Lexical Opposition and Discourse Contrast: A Data-driven Investigation. Doctoral Thesis. – University of Bergamo. 2017. – 242 p.

<sup>11</sup> Man W, Thomson A. Rhetorical structure Theory: A theory of Text organization. – University of South Caroline: 1987. – 82 p.

<sup>12</sup> Harabagiu S., Hickl A., and Lacatusu F. Negation, Contrast and Contradiction in Text Processing. // In Association for the Advancement of Artificial Intelligence (AAAI). – Boston, 2006. Volume 6. – PP. 755-762.

<sup>13</sup> Вертаева Л. В. Антитеза как принцип организации художественного текста (на материале современного английского языка): автореф. дис. канд. филол. наук: 10.02.04 / Вертаева Л.В. – Минск, 1984. – 22 с.

Antiteza tushunchasi, uning tilshunoslik va adabiyotshunoslikda o'rganilishi hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflab berish;

Abdulhamid Cho'lpon va Tomas Eliot asarlarining lingvostilistik xususiyatlarini ochib berish;

Abdulhamid Cho'lpon va Tomas Eliotning she'riy asarlarida qo'llangan antitezaning struktur-semantik, kommunikativ-pragmatik jihatlarini asoslab berish;

she'riy matnlarda muallifning badiiy pragmatik intensiyalarini yetkazishda antitezadan foydalanish jihatlarini tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz va o'zbek shoirlari Abdulhamid Cho'lpon va Tomas Eliot she'riy asarlarida qo'llangan antitezalar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz va o'zbek shoirlari Abdulhamid Cho'lpon va Tomas Eliot ning she'riy asarlarida qo'llangan antitezalarning leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda komponent, tasnifiy, chog'ishtirma, struktur-semantik, kommunikativ-pragmatik tahlil usullari, shuningdek, lingvostatistik usulning elementlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kontrast, zidlanish, qarama-qarshilik semalarini ifodalovchi til va nutq birliklari leksik darajada antonimlar, sintaktik darajada antiteza shaklida uchrashi ham ingliz, ham o'zbek tiliga xosligi, o'zbek tilida qo'shma gaplar doirasida uchraydigan tazodning ingliz tilida uchramasligi bu lisoniy birliklarning mazkur tillardagi izomorfik va allomorfik xususiyatlarini ifodalashi asoslangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi she'riy matnlarda qo'llanadigan antiteza morfologik jihatdan ot, sifat, ravish, fe'l va uning vazifadosh shakllari (sifatdosh, harakat nomi) kabi so'z turkumlariga mansub antonimlar va inkor so'z yasovchi qo'shimchalar asosida yuzaga kelishi Abdulhamid Cho'lpon va Tomas Eliot asarlaridagi antitezalar asosida dalillangan;

Abdulhamid Cho'lpon va Tomas Eliot she'riyatida mualliflarning pragmatik intensiyalariga erishishda lisoniy vositalarning rolini ko'rsatib berish orqali ingliz tilidagi she'riy matnlarda antiteza o'zaro zidlanishga asoslangan so'zlarning denotativ ma'nolari, o'zbek tilida esa ko'proq konnotativ ma'nolari asosida yuzaga kelishi aniqlangan;

ingliz tilidagi she'riy matnlarda muallifning pragmatik intensiyalariga erishish orqali o'quvchining e'tiborini jalb etishda metafora, antiteza, metonimiya, alluziya kabi stilistik vositalar, o'zbek she'riyatida esa metafora, antiteza, jonlantirish, kinoya, shuningdek, stilistik vositalar uyg'unligi faol qo'llanishi ingliz va o'zbek tillaridagi she'riy matnlar orqali isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida zidlanish, qarama-qarshilik, kontrast kabi tushunchalarning rus-o'zbek-ingliz tillaridagi tavsifi o'rganilgan, ularning o'zaro bir-biridan farqli jihatlari aniqlangan;

Abdulhamid Cho'lpon va Tomas Eliotning she'riy asarlari tahlili amalga oshirilgan va ularda antitezani yuzaga keltirgan antonimik so'zlarning morfologik, sintaktik, semantik xususiyatlari ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillari she‘riy matnlarida muallifning badiiy intenzivligini yetkazishda antitezadan foydalanish usullari aniqlangan;

chog‘ishtirilayotgan tillar she‘riy asarlarida qo‘llangan antitezada badiiy intenzivligini yaratishda metafora, metonimiya, personifikatsiya, alluziya, o‘xshatish, takror kabi stilistik vositalardan foydalanish borasida takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo‘llanilgan ilmiy yondashuvlar, metodologik usullar, nazariy ma‘lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, amaliy misollar til materiallariga tayanilgani, ishda zamonaviy tadqiq usullaridan foydalanilganligi, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlari, O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillaridagi she‘riy asarlarning uslubi, she‘riy matnlarda qo‘llangan stilistik usullar, xususan antitezalarning qo‘llanishi, ularning morfologik, struktur-semantik va pragmatik xususiyatlari borasida nazariy materiallardan ingliz va o‘zbek adabiyotining uslubini keng tadqiq etish, tarjimashunoslikning lingvostilistik masalalarini keng o‘rganish, turli stilistik vositalarning kognitiv, konseptual xususiyatlarini o‘rganish kelgusida mazkur masalalar yuzasidan qiyosiy aspektda monografik tadqiqotlar olib borishda qo‘llanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati filologiya va tillarni o‘qitish, xorijiy til va adabiyoti, tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishlarida “Ingliz tili stilistikasi”, “Stilistika va matn tahriri”, “Matn lingvistikasi”, “Qiyosiy tipologiya”, “Tarjima nazariyasi” kabi fanlardan ma‘ruza matnlarini yaratishda, turli metodik tavsiyanomalar tuzishda, filolog va tarjimon mutaxassislarni tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlarida bakalavr va magistr uchun o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yozishda hamda ikki tilli lug‘atlar tuzishda foydali manba bo‘lib, xizmat qilish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida antitezaning semantik va pragmatik xususiyatlari chog‘ishtirma aspektida tadqiq qilish asosida:

kontrast, zidlanish, qarama-qarshilik semalarini ifodalovchi til va nutq birliklari leksik darajada antonimlar, sintaktik darajada antiteza shaklida uchrashi ham ingliz, ham o‘zbek tiliga xosligi, o‘zbek tilida qo‘shma gaplar doirasida uchraydigan tazodning ingliz tilida uchramasligi bu lisoniy birliklarning mazkur tillardagi izomorfik va allomorfik xususiyatlarini ifodalashiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan F3-20191258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 04-iyuldagi 0311-1303-son ma‘lumotnomasi). Natijada, kontrast va zidlanishni ifodalovchi so‘z birikmalari aksariyat ot, sifat, ravish, fe‘l va uning vazifadosh shakllari (sifatdosh, harakat nomi) kabi so‘z turkumlariga oid

antonimlarga asoslanganligi loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasini yangi fikr-mulohazalar bilan boyitishga xizmat qilgan;

ingliz she'riy matnlarda muallifning pragmatik intensiyalariga erishish orqali o'quvchining e'tiborini jalb etishda metafora, antiteza, metonimiya, alluziya kabi stilistik vositalar, o'zbek she'riyatida esa metafora, antiteza, jonlantirish, kinoya, shuningdek, stilistik vositalar uyg'unligi faol qo'llanishiga oid xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima bo'limining ish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 17-iyundagi 01-03/806-son ma'lumotnomasi). Natijada, Abdulhamid Cho'lpon va Tomas Eliot she'riyatidagi antitezalar tarjimalarining qiyosiy tahlilida she'riy tarjimadagi antiteza stilistik vosita sifatida qaralib, boshqa asarlar tarjimasida qo'llash uchun ilmiy-metodik manba bo'lib xizmat qilishi ta'minlangan hamda she'riy matnlarning pragmatik tahlili ushbu ijodkorlar asarlarini tarjima qilishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi she'riy matnlarda qo'llanadigan antiteza morfologik jihatdan ot, sifat, ravish, fe'l va uning vazifadosh shakllari (sifatdosh, harakat nomi) kabi so'z turkumlariga mansub antonimlar va inkor so'z yasovchi qo'shimchalar asosida yuzaga kelishi Abdulhamid Cho'lpon va Tomas Eliot she'riy asarlaridagi antitezalarning komponent tahlil qilish asosida dalillanganligiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan F3-20191258-raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 04-iyuldagi 0311-1303-son ma'lumotnomasi). Natijada zidlanishni ifodalovchi so'z birikmalari aksariyat ot, sifat, ravish, fe'l va uning vazifadosh shakllari (sifatdosh, harakat nomi) kabi so'z turkumlariga mansub antonimlar va inkor shaklda so'z yasovchi qo'shimchalar asosida yuzaga kelishi loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasini aniq xulosalar bilan boyishiga xizmat qilgan;

Abdulhamid Cho'lpon va Tomas Eliot she'riyatida mualliflarning pragmatik intensiyalariga erishishda lisoniy vositalarning rolini ko'rsatib berish orqali ingliz tilidagi she'riy matnlarda antitezada o'zaro zidlanishga asoslangan so'zlarning denotativ ma'nolari, o'zbek tilida esa ko'proq konnotativ ma'nolari asosida yuzaga kelishiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib va tatbiq qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" dasturining 35-bandi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligining 2022-yil 6-oktabrdagi 03-12-13-4158-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur dastur doirasida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib va tatbiq qilish jarayonlarining saviyali amalga oshirilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, shulardan milliy ilmiy jurnallarda 5 ta, xorijiy ilmiy jurnallarda 4 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, dissertatsiya hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlangan, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Antiteza chog'ishtirma tilshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida”** deb nomlangan birinchi bobida zidlanishni ifodalovchi til birliklarining nazariy asoslari, antitezaning tilshunoslik va adabiyotshunoslikda o'rganilishi, antiteza tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan.

Tilshunoslikda qarama-qarshilikni ifodalash uchun bir qancha tushunchalar mavjud. Praga lingvistik maktabiga yaqin yo'nalishlarda bu borada ikkita termin, ya'ni “qarama-qarshilik” va “kontrast” tushunchalaridan foydalanish belgilangan bo'lib, ular paradigmatic va sintagmatic tamoyil asosida qo'llanadi. A.Martine asarlarida kontrast deganda nutq zanjiri birliklari orasidagi munosabatlar, qarama-qarshilik bir xil paradigmaga mansub birliklar orasidagi munosabatlar tushunilishi e'tirof etilgan<sup>14</sup>. Ingliz va o'zbek tillaridagi zidlanishni ifodalovchi lisoniy vositalarni o'zaro tadqiq etganimizda ularni leksik vositalar hamda sintaktik vositalarga ajratib o'rganishni maqsadga muvofiq ekanligini e'tirof etmoqchimiz. Tilda zidlanishni leksik sathda ikki so'zni bir-biriga qarshi qo'yish antonimiya bo'lib, o'zaro zidlangan so'zlar antonimlar deyiladi. Kontrast ma'nosini ifodalovchi lisoniy vosita esa antiteza sintaktik birligi bo'lib, uning shakllanishida antonimlar asos vazifasini o'taydi. Aksariyat antitezalarning yaratilishida antonimlar alohida ahamiyat kasb etadi. Antiteza sintaktik birligini badiiy adabiyotda o'ziga xos badiiy tasviriy vosita ko'rinishida o'z o'quvchisi e'tiborini kengroq jalb qilish maqsadida qo'llanishi uning adabiyotshunoslikda badiiy tasviriy vosita, tilshunoslikda stilistik usul sifatida interpretatsiya qilishga undaydi. Kontrastni yaratishda antonimlarning eng yuqori darajasi bilan ajralib turadigan to'liq antonimlardan tashqari, boshqa lingvistik vositalar, masalan, konversiya va ekonimlarning yakuniy qarama-qarshiligi ham ishtirok etishi mumkin. Konversiya – bu bir xil vaziyatni tasvirlaydigan, lekin har xil nuqtayi nazardan, vaziyatning turli ishtirokchilariga nisbatan jarayonni qarama-qarshi tomondan aks ettiruvchi juft so'zlar (sell-buy, borrow-lend). Ekonimlar – umumiy giperonim bilan bir xil

<sup>14</sup> Мартине Андрея. Основы общей лингвистики. – М.: УРСС, 2004. – С. 221.

darajadagi umumlashtiruvchi soʻzlar boʻlib, pozitsiyasi va vazifasi boʻyicha bir xil boʻlgan bu soʻzlar bitta aniq tushunchaga tegishli boʻladi (father-mother, winter-summer)<sup>15</sup>. Antonimlarning bu kabi turlari ham antitezaning yaratilishida faol ishtirok etadi. Ular leksik sathdan sintaktik sathga koʻchganda, yaʼni nutq mahsuliga aylanganda antiteza vazifasini oʻtaydi.

Tilda zidlanishni ifodalovchi lisoniy vositalar, yaʼni antonimlarning asosiy uslubiy vazifasi – bu antitezani ifodalashning leksik vositasi boʻlishdir. Antiteza uslubiy vosita sifatida xalq sheʼriyatida, masalan, maqollarda keng tarqalgan: *Yosh kelsa ishga, qari kelsa oshga*.

Antiteza oddiy “Kuchli har doim ayblashga ojizdir” va murakkab “Biz yomonlik va muhabbatga hech narsani qurbon qilmasdan, nafratlanamiz va tasodifan sevamiz. Qonda olov qaynab turganda qandaydir maxfiy sovuqlik hukmronlik qiladi”. Odatda bunday vaziyatlarda bir nechta antonim juftlar murakkab antitezani hosil qiladi.

Antiteza oʻzbek va chet el olimlarining tilshunoslik, adabiyotshunoslik, kognitiv tilshunoslik sohalarida oʻrganilgan boʻlib, izlanishlarda asosan antitezaning nutqda qoʻllanishining lingvistik xususiyatlari, antonim asosan leksik birliklarda namoyon boʻlishi va antiteza esa matnda ifodalanganligi bois diskursiv xususiyatlarga ega ekanligi bilan farqlanishi koʻrsatib oʻtilgan.

A.Mamajonov antiteza borasida quyidagi fikrlarni eʼtirof etadi: “Nutqning ifodalililigini kuchaytirish maqsadida maʼnosiga koʻra bir-biriga zid tushunchalar, mazmun jihatdan biri ikkinchisini rad qiluvchi fikrlarni qarama-qarshi qoʻyish orqali qiyoslash usuli antiteza hosil qilinadi. Bu usul hozirgi oʻzbek adabiy tilida keng qoʻllaniladi. Antitezaning asosiy vazifasi kontrastlash hisoblanadi. Semantik kontrast asosida maxsus sintaktik strukturaga ega boʻlgan nuqt birliklarini stilistik maqsadda qarama-qarshi qoʻyish natijasida antiteza hodisasi yuzaga keladi”<sup>16</sup>.

I.Oʻsarovning fikricha, “antiteza hodisasi qoʻshma gaplar orqali ifodalanuvchi universal lisoniy hodisa boʻlib, unda asosan ikki komponentli qoʻshma gap orqali uning komponentlari oʻrtasida oʻzaro ham shaklan, ham mantiqan bir-biriga zid, qarama-qarshi boʻlgan voqea-hodisalar ifodalanadiki, shu yoʻsinda obyektiv borliqdagi turli-tuman nomutanosiblik va ziddiyatlar aks ettiriladi”<sup>17</sup>.

G.Keldiyorovanning qayd etishicha, antiteza qarama-qarshi qoʻyish maʼnosini bildiradi. Bu sanʼat turidan ifodalilikni kuchaytirish uchun qarama-qarshi tushunchalarni, fikr, obraz, narsa va hodisalarni, shaxslar xarakterini qiyoslash maqsadida foydalaniladi. Antitezadan sheʼriy asarlarda muhim badiiy poetik vosita sifatida foydalaniladi. Unda ikki qarama-qarshi qutb biri-ikkinchisini inkor etadi, koʻproq fikr qarama-qarshiligi nazarda tutiladi. Buni his etish, tushunishda bir-biriga zid qoʻyilgan narsa yoki hodisalarga nisbatan tinglovchining diqqati muhimdir<sup>18</sup>.

<sup>15</sup> Седых Э.В. Контраст в поэзии как один из типов выдвижения: Дисс...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: 1997. – С. 208.

<sup>16</sup>Мамажанов А. Қўшма гапларда антитеза // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1990. №6. – Б. 27.

<sup>17</sup> Ўсаров.И.К. Қўшма гаплар умумий стилистикасининг муаммолари (асиндетон, полисиндетон, антитеза ва хиазм материаллари асосида). Филол. фан. ном. дисс. – Андижон: 2004. – 27 б.

<sup>18</sup> Келдиёрова Г.С. Ўзбек бадий нуктида антитеза (Э.Воҳидов шеърятти мисолида). Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент: 2000. – Б. 27 .

L.A.Vvedenskaya va L.G.Pavlova “nuqtni jonlantirish, unga emotsionallik, ifodaviylik, obrazlilik baxsh etish uchun antitezadan foydalaniladi”<sup>19</sup>, deb hisoblaydilar. Qarama-qarshi hodisa va belgilarni taqqoslashga asoslangan bunday uslub antiteza hisoblanadi: ushbu stilistik vositaning asosiy fazilati shundaki, antitezaning ikki qismi bir-birini yoritib turadi, shuningdek qisqa shaklda ifodalanadi, bu uning ifodaviylik quvvatini kuchaytiradi<sup>20</sup>.

“The New Encyclopedia Britannica”da antitezaning quyidagicha ta’rifi mavjud: “a figure of speech in which irreconcilable opposites or strongly contrasting ideas are placed in sharp juxtaposition and sustained tension” (keskin va doimiy qarama-qarshilikda ifodalanadigan murossasiz va kuchli qarama-qarshi fikrlarni tasvirlaydigan nutq uslubi)<sup>21</sup>.

Antiteza qarama-qarshilik va zidlanishni ifodalaydigan stilistik usul bo‘lib, u antonim asosiga quriladi, ya’ni har qanday antitezada antonim belgisi bo‘ladi. Antiteza badiiy matnda badiiy tasviriy vosita hisoblanib, o‘zaro qarama-qarshilik, zidlanish asosida badiiy ifodalalilikni, ta’sirchanlikni, ekspressivlikni yuzaga keltirish uchun qo‘llanadi. Antitezaning antonimdan ajratib turadigan asosiy farqi antiteza mikro va makromatnlarda qo‘llanib sintaktik va sintagmatik xususiyatlarga ega.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ingliz va o‘zbek tillarida antitezaning lingvistik xususiyatlari**” deb nomlanib, antitezaning struktur-semantik xususiyatlarini o‘zbek jadid adabiyotining taniqli namoyandasi Abdulhamid Cho‘lpon va ingliz adabiyotining yetuk namoyondalaridan bo‘lgan Tomas Eliotning she’riy asarlari tili va ularda qo‘llangan antitezalarning struktur-semantik xususiyatlari tadqiq etildi.

Adabiy til muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me’yorlashtirilgan, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi til shakli hisoblanadi. Adabiy tilning ikki – og‘zaki ham yozma ko‘rinishi mavjud. Har qanday adabiy til xalq og‘zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi.

Badiiy asar tili badiiy uslubning o‘ziga xos qonuniyatlarga bo‘ysingan holda ish ko‘radi. Badiiy til shoir yoki yozuvchining xalqning muloqot jarayonida qo‘llanadigan adabiy til mahsulidan mohirona foydalangan holda o‘ziga xos badiiy-estetik zavqni bag‘ishloqchi asarlarni yaratadi. Bu jarayonda turli xil badiiy tasviriy vositalardan foydalanadiki, bu holat o‘quvchining o‘ziga jalb qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

A.Cho‘lpon va T.Eliotning she’riy asarlarini lingvostilistik xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, bu ikki yozuvchining asarlarida ham metafora, mubolag‘a, personifikatsiya, o‘xshatish, metonimiya stilistik usullari faol qo‘llanganligining guvohi bo‘ldik. Bu esa mazkur shoirlar asarlari naqadar badiiy tasviriy vositalarga boy ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

Bundan tashqari, mazkur shoirlarning asarlarida antiteza stilistik vositasi ham faol qo‘llangan bo‘lib, ushbu stilistik vosita ularning poetik asarlarida eng keng

---

<sup>19</sup> Введнская Л.А., Павлова Л.Г. Человеческое слово могучее. – М.: Просвещение. 1984. – С.98.

<sup>20</sup> Сергеич, П. Искусство речи на судею. – Москва: Юрайт, 2024. – С.99.

<sup>21</sup> The New Encyclopedia Britannica. 15th ed. – London: Encyclopedia Britannica, Inc., 1993. Vol. 3. – P. 588.

qo‘llanganligiga sabab, ikki shoir ham o‘z she‘rlari orqali jamiyatdagi turli qarama-qarshiliklar, adolatsizliklar, insonlarning o‘zaro munosabatidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarni yoritib berishga harakat qilishgan.

*Ko‘m-ko‘k ekan, sarg‘aydilar yaproqlar –  
Og‘riq, mag‘lub, tutqun Sharqning yuzidek.  
Bo‘ronlarning ko‘zlari, kim o‘ynoqlar,  
G‘olib G‘arbning qonga to‘lgan ko‘zidek.*

A.Cho‘lponning ushbu she‘riy matnida antiteza hodisasi mag‘lub Sharq va g‘olib G‘arb birikmalari orqali ifodalangan. Matnda ikkinchi she‘riy qatordagi “mag‘lub, tutqin Sharq” birikmasi **ot+ot+ot** modeli asosida yasalgan. g‘olib G‘arb birikmasi **ot+ot** ko‘rinishida so‘z birikmasini hosil qilgan. “Mag‘lub, tutqin Sharq” va “g‘olib G‘arb” birikmalari sintaktik jihatdan tobe hokim usuli orqali yasalgan. Mazkur she‘riy parchada antiteza hosil qilgan so‘z va so‘z birikmasida metonimiya stilistik usuli qo‘llanmoqda. “Mag‘lub Sharq”da metonimiya stilistik usuli qo‘llangan bo‘lib, Sharq so‘zi orqali “Sharq xalqi” nazarda tutilmoqda. “Mag‘lub sharq”qa qarama-qarshi ifoda bu “g‘olib G‘arb” bo‘lib, unda ham metonimiya stilistik usuli qo‘llangan. Bu she‘riy to‘rtlikda qo‘llangan antitezaning antonimiyadan farqi unda zidlanishni bildiruvchi “g‘olib” va “mag‘lub” so‘zlari yakka so‘z vazifasida qo‘llanmaydi. Bu yerda ushbu so‘zlarni Sharq va G‘arb so‘zlariga qo‘shish orqali va unda metonimik ma‘no hosil qilish orqali so‘z birikmasi qilib qo‘llangan. Shu orqali ushbu satrdagi qarama-qarshi ifodalar antitezani hosil qiladi.

*Wait without thought, for you are not ready for thought:*

*So the **darkness** shall be the **light**, and the stillness the dancing.*

Ushbu keltirilgan parchada “darkness” va “light” so‘zlari o‘zaro antonim so‘zlar hisoblanadi. Biroq, ular matn tarkibida kelganligi bois antiteza stilistik usulini hosil qilmoqda “Darkness” so‘zi ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, gap tarkibida ega vazifasida qo‘llanmoqda. Lug‘atlarda “darkness” so‘zining quyidagi leksik ma‘nolarini uchratish mumkin: dark – qorong‘ulik, zulmat, ma‘nosiz, shadow – soya, wickedness – yovuzlik, duskiness, swartheness – xiralik, qoramtirlik. Mazkur parchada “darkness” so‘zining zulmat, yovuzlik ma‘nolari qo‘llanilgan.

“Darkness” leksik birligiga qarama-qarshi bo‘lgan “light” so‘zi ham ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, sintaktik jihatdan ot kesim vazifasida qo‘llanilmoqda. “Light” so‘zi o‘zbek tiliga yorug‘lik deb tarjima qilinib, uning brightness – yorqinlik, lightness – engillik, light source – yorug‘lik manbai, public awareness – jamoatchilik xabardorligi, mental understanding as an enlightening experience – aqliy yechim, divine illumination – ilohiy yorug‘lik, a person regarded very fondly – juda ham qadrlanadigan inson, sparkle – porlamoq, ablaze – alangalangan, light – colored – ochiq rangli, pale – och rangli, clean, clear – toza tiniq, fall – yiqilmoq, dismount – pasaytirish ma‘nolari ham mavjud. Yuqorida keltirilgan parchada esa yorug‘lik ma‘nosida qo‘llanmoqda.

Mazkur she‘riy parchani tahlil qilar ekanmiz bu ikki so‘z leksik birlik sifatida antonimik ma‘no hisoblansa-da, matn tarkibida antiteza stilistik vositasida zulmat o‘rnini yorug‘ kunlar egallaydi ma‘nosi kuchaytirib bermoqda.

A.Cho'lpon va T.Eliotning she'riy asarlarida metafora, mubolag'a, jonlantirish, o'xshatish, metonimiya kabi stilistik vositalarning qo'llanishi ushbu shoirlar asarlari lingvostilistik xususiyatlaridagi izomorfik xususiyatlarni ko'rsatib bersa, A.Cho'lponda kinoya, T.Eliot asarlarida esa alluziga ko'proq murojaat etganligi bu ikki shoir ijodinin allomorfik xususiyatlarini namoyon etadi.

A.Cho'lpon she'riyatida qo'llangan antitezalarning morfologik xususiyatlari shundan iboratki, uning asarlarida antonimik ma'no hosil qiluvchi ot, sifat, fe'l, sifatdosh so'z turkumiga oid so'zlar so'z birikmasi va gap bo'lagida qo'llanib she'riy matnlarda antitezani hosil qilgan bo'lsa, T.Eliot bu borada ot, harakat nomi, fe'l, sifat so'z turkumlaridan foydalangan.

A.Cho'lpon she'riyatining sintaktik xususiyatlari **ot+ot, ot+ot+ot, sifat+ot, sifat+sifat+sifat+sifat+ot** modeli asosida yasalgan antitezalar, shuningdek, inkorni anglatuvchi "-siz", "-ma" qo'shimchalari bilan hosil qilingan antitezalarda namoyon bo'ladi. T.Eliot o'z asarlarida antitezani hosil qilishda inkorni bildiruvchi "-un", "-dis", "ir-" kabi prefikslardan foydalanmaganligiga guvoh bo'ldik.

Shuningdek, A.Cho'lpon o'z she'riy asarlarda antitezadan foydalanib, kontrast, qarama-qarshi ma'nolarni yuzaga keltirishda so'zlar, so'z birikmalarning dennotativ va konnotativ ma'nolaridan, T.Eliot antiteza hosil qilishda esa polisemantik ma'noga ega so'zlardan mohirona foydalana olgan.

Dissertatsiyaning **"Antitezaning badiiy matndagi pragmatik xususiyatlari"** deb nomlangan uchinchi bobida she'riy matnlarning pragmatik aspektlari hamda antiteza yordamida muallifning pragmatik intentsiyani yaratish xususiyatlari tahlil etilgan.

She'riy matnning pragmatik xususiyatlari borasida so'z borganda biz avvalo, she'riyat va pragmatikaning o'zaro bog'liqligi va munosabati xususida so'z yuritishimiz maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, she'riyat bilan pragmatika mazmun-mohiyati jihatidan bir-biridan farqli jihatlarga ega bo'lib, pragmatikada maqsadga muvofiqlik, natijaga yo'naltirilganlik, harakatning afzalligi yetakchilik qilsa, she'riy matnlarda yuksak ijodkorlik, hissiyot, keng dunyoqarash, badiiy ifoda ustunlik qilishi kuzatiladi.

U.Nosirovaning fikriga ko'ra, "pragmatikaning asosiy yo'nalishi bo'lgan turli harakatlar, ya'ni savollar, xabarlar, va'dalar, minnatdorchilik ifodalari, maslahat, so'rovlar va boshqa muloqot jarayonlari poetik nutqda muallifning badiiy ifodasi ostida namoyon bo'ladi<sup>22</sup>. She'riy matnlarda qo'llanadigan stilistik vositalar va ular yordamida muallifning intentsiyasi pragmatikaning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi.

F.Ayleruning ta'kidicha, "she'riyat tasavvur, emotsiya, haqiqat, ifoda tuyg'usi va she'riyat tilning mavjudligi bilan xarakterlanadigan adabiy faoliyatdir. Shuningdek, u inson tomonidan his-tuyg'u va fikrlarni ifodlash uchun ko'chma ma'noli tillardan foydalanib she'riy matnni misralarga, qatorlarga, baytlarga bo'lib o'rganishga ham e'tibor qaratadi"<sup>23</sup>. Bu orqali F.Ayleru she'riyatda muallif fikrini

<sup>22</sup> Носирова У. Нутқнинг прагматик хусусиятлари. // Scientific journal of the Fergana State University. – Фарғона, 2018. №6. – Б. 80-82.

<sup>23</sup> Ayeleru F. T. Communicative approach to the teaching of literature: A case of Coups de Bilon of David Diop's Le Temps Du Martyr. Cerebral Pages // Journal of General Education. – Nigeria, 2012 №1(3). – PP. 123-133.

o‘quvchiga yetkazib berishda emotsional va ko‘chma ma’noli til birliklaridan foydalanish orqali bevosita pragmatikaga murojaat qilish amalga oshadi, degan fikrni ham ilgari surmoqda.

She’riy matnning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish asliyat tilidagi lisoniy birliklarning kommunikativ mohiyatini aniqlash, bu o‘rinda lirik qahramon xarakterini, kommunikativ intensiyasini, pragmatik maqsadni ifodalash jarayonida yuz beradigan muloqot vaziyatining ta’siri, shu orqali badiiy asarning pragmatik mazmunini lisoniy va nolisoniy vositalar orqali ifodalanish usul va vositalarini aniqlash imkoniyatini beradi. Bu esa o‘z navbatida badiiy pragmatikaga murojaat etishimizga turtki beradi.

J.Meyning fikriga ko‘ra, badiiy pragmatika til xususiyatlaridan foydalangan holda ijodkorlar o‘z tinglovchilariga samarali hamkorlikni o‘rnatishga qaratilgan ta’sirlarni o‘rganadigan tadqiqot sohasini anglatadi. Bunday ta’sirlar ma’lum bir auditoriyaga, shu jumladan, badiiy asar o‘quvchilariga murojaat qilganda, ushbu xususiyatlardan foydalanish shartlarini aniq ko‘rib chiqishni talab etadi<sup>24</sup>. Demak, badiiy pragmatika bu badiiy asar yaratilayotganda muallif turli lisoniy vositalardan foydalanib, o‘zining fikr va qarashlarini turli stilistik vositalarni qo‘llab, o‘quvchiga ta’sir o‘tkazish va ushbu ta’sir tadqiqi bilan shug‘ullanishni nazarda tutadi.

***“The Hollow Men” by T.S.Eliot***

*We are the hollow men*

*We are the stuffed men*

*Leaning together*

*Headpiece filled with straw. Alas!*

*Our dried voices, when*

*We whisper together*

*Are quiet and meaningless*

*As wind in dry grass*

Shoir ushbu she’riy misralar orqali o‘ziga xos pragmatik ma’no yarata olgan. She’riy matnda pragmatik ma’no hosil qilish uchun esa matnda bir necha stilistik vositalardan foydalangan.

Birinchi qatordagi “hollow men” birikmasi metaforik hisoblanadi va o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z “ichi bo‘sh odam”, ma’noviy tarjimada esa “qalbi muzlagan odamlar” sifatida beriladi. Aslida so‘zma-so‘z tarjima qilsak, insonni “ichi bo‘sh” yoki “ichi kovak” deb tasvirlab bo‘lmaydi, chunki inson organizmi muskullar, suyaklar, go‘sht, qon va nerv tolalaridan tashkil topgan. Qalbi muzlagan insonlarga boshqalarda bor, ya’ni olov yetishmaydi. Shuning uchun bu kabi insonlar o‘zlarining qalblarini sovuqligi va hissisligi ustidan yig‘laydilar. Ushbu she’riy matnda muallif yaratgan implitsit ma’no shundan iboratki, qalbi muzlagan insonlar ruhiy jihatdan bo‘sh va har qanday e’tiqoddan mahrum bo‘ladilar. Ushbu she’riy matnda “hollow (bo‘sh, kovak)” so‘zini “men (inson)” so‘ziga metaforik qo‘llash orqali implitsit ma’no hosil qilgan.

Demak, shoir bu yerda she’riy matnning pragmatik ma’nosini ruhiy, hissiy jihatdan kamchilikka ega bo‘lgan insonlarga nisbatan “horror – kovak, bo‘sh,

---

<sup>24</sup> Mey J. When Voices Clash. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1999. – P. 12.

bo'shliq" so'zini ishlatib metafora stilistik vositasini yaratmoqdaki, shu orqali pragmatik ma'noni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, ushbu she'riy matnda "stuffed man (barkamol odam)", "dried voices – quruq (ma'nosiz tovushlar))" kabi birikmalar ham o'zida metafora stilistik usulini hosil qilib, pragmatik ma'no yaratmoqda.

Shuningdek, shoir mazkur pragmatik ma'noni hosil qilishda she'riy nuqtning perlokutiv nutq akti turi hamda direktiv va konstativ kabi pragmatikaning turlaridan foydalanishi, buning uchun esa ushbu she'riy matnda qo'llangan stilistik vositalardan samarali foydalanganligini e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Mazkur she'riy matnda pragmatik ma'noni stilistik vositalarni qo'llash orqali implitsit va presuppozitsiyani hosil qilish jarayonini tahlil qilish uchun pragmatik ma'noni yuzaga keltiruvchi stilistik vosita, uning nima orqali ifoda etilganligi, hosil qilingan ma'no turi, nima vositasida ma'no yuzaga chiqayotganligi hamda nazarda tutilgan presuppozitsiyani o'rganib chiqdik va quyidagi jadvalda ushbu tahlilni ko'rish mumkin.

### 1-jadval

#### T.C.Eliotning "The Hollow men" she'rining pragmatik ma'no hosil qilish ko'rsatkichi bo'yicha tahlili

Stilistik vosita	Ifoda	Ma'no turi	Mazmuni	Ma'no vositasi	Presuppozitsiya
metaphor	stuffed man	implicit	filled with triviality	stuffed	stuffing, physical content
metaphor	dried voices	implicit	meaningless	dried	dryness, meaninglessness
metaphor	hollow men	implicit	spiritually empty	hollow	hollowness, spiritual emptiness
simile	As wind in dry grass	implicit	Our dried voices	Wind in dry grass	Dryness, quietness, meaninglessness
metonymy	Voices	implicit	Meaningless of the voices	dried	Non-effective, senseless

A.Cho'lponning she'riy asarlari ham pragmatik ma'no hosil qilishda pragmatikaning ikki asosiy funksiyasidan keng foydalangan. Birinchisi A.Cho'lpon o'z fikr va g'oyalarini o'quvchilariga ta'sirli qilib yetkazishda turli lisoniy vositalardan keng foydalangan. Ikkinchi esa A.Cho'lpon pragmatikaning axborot berish funksiyasidan ham keng foydalangan. Bu orqali shoir o'zining pragmatik maqsadiga erisha olgan. Bu jihatlarni A.Cho'lponning turli she'riy asarlarini pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali o'rganib chiqdik. Quyida A.Cho'lponning "Maxmudxo'ja Behbudiyga ehtirom" marsiyasida ham ko'rishimiz mumkin.

*Men-da ojiz – u muhitning oldida  
Qabring topib ko'z yoshimni to'kmakka.  
Hamda achchiq shiddatim-la ul yerda  
Oq kallalik-qora devni so'kmakka.*

Mazkur she'riy parchaning pragmatik tahlilini olib boradigan bo'lsak, A.Cho'lponning Mahmudxo'ja Behbudiyning o'limidan ta'sirlanib yozgan hasratlarini ko'rishimiz mumkin. Bu hasratlarni ta'sirchan qilib yaratishda esa turli

stilistik vositalardan foydalangan. Jumladan, “achchiq shiddat”, “oq kallalik”, “qora dev” birikmalari shular jumlasidandir. Muallif “achchiq shiddat” birikmasi orqali metaforik ma’no hosil qilgan. Aslida “shiddat” so’zi tez, tezlik bilan, o’ziga xos g’ayrat bilan degan ma’nolarni anglatadi. Bu so’zga “achchiq” sifatini qo’shish orqali Cho’lpon o’z she’rida Behbudiyning o’limi sabab o’sha davrdagi voqealarga nisbatan alamlarini izhor etmoqda. Bundan tashqari “oq kallalik” va “qora dev” birikmalarida ham metafora, ham kinoya stilistik usuli ko’chma ma’noda qo’llanmoqda. Ushbu birikmalarni tom ma’noda ko’rib chiqadigan bo’lsak, mantiqiy mazmuni ko’rsata olmaymiz. Ammo “oq kallalik” so’z birikmasida ijobiy ma’noda qo’llaniladigan so’z orqali kinoya ohangi ifodalab berilmoqda.

